

Loyiha tashkilotlari o'rtasida tanlov

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Shifonur ko'chasi 75-A uy manzili bo'yicha joylashgan talabalar yotoqxonasi binosini kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha tanlov e'lon qiladi.

Tanlov ishtirokchilaridan kelib tushgan takliflar quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

Tartib raqam №	Talablarning nomlanishi	Ball
1	Obyektni o'rganganligi va ishlarni o'z vaqtida topshirish to'g'risida kafolat xati (obyekt mavjud holati va bajarilishi lozim bo'lgan ishga loyiha taklifidan fotosuratlar ilova qilinsin)	20
2	Tanlov ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha kafolat xatining mavjudligi	5
3	Tashkilotda faoliyat yurituvchi xodimlar soni 10 va undan yuqoriligi (F.I.Sh., lavozimi hamda ish tajribasi (yil) haqida to'liq ma'lumot, QR kodi bilan.	10
4	Loyiha ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan asbob-anjomlar va kompyuter texnikalari mavjudligi	10
5	O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligining I va undan yuqori toifadagi qurilish obyektlarini mukammal va joriy ta'mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun litsenziya mavjudligi	10

6	Tashkilotning Davlat idoralari ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma mavjudligi	5
7	Loyiha – qidiruv ishlarini olib borish muddati (asoslovchi hujjatlar bilan)	10
8	Bankdan kartoteka mavjud emasligi haqida asl nusxada malumotnoma	5
9	Soliq organidan soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma mavjudligi	5

Tanlovga takliflar topshirish muddati joriy yil 3 – apreldan 17 – aprelgacha. Takliflar ilovadagi texnik topshiriq bo'yicha.